

OILADA TARBIYA ASOSLARI

Ermakova Sevinch Shavkat qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

E-mail: sevinchermakova@gmail.com

Annotatsiya: Shaxs kamoloti, jamiyat rivojida oila va undagi munosabatlarning o‘rnini muhimdir. Sog‘lom muhitdagi oilagina barkamol insonlarni voyaga yetkazib beradi.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, shaxs, barkamol, avlod, farzand, muhit.

BASICS OF FAMILY UPBRINGING

Abstract: The role of household and relationships are significant for evolution of society. Only a family with a healthy environment can bring up competent persons.

Key words: family, upbringing, person, mature, generation, child, ambience

Oila qon-qarindoshlik, nikoh yoki birga yashash orqali bog‘langan insonlar guruhidir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon oila, uning mustahkamligi, oilada farzand tarbiyasi yanada dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Axloqan pok, ma’nан yetuk, jismonan baquvvat, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish bugungi kunning asosiy mavzusidir. Mana shu sifatlarga ega avlodning yetishib chiqishidan, albatta, har bir jamiyat manfaatdor. Chunki har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlod, uning egallagan ta’lim-tarbiya darajasiga bog‘liq. Bu avlodni esa sog‘lom munosabatlar o‘rnatilgan oila voyaga yetkazadi. Bola tarbiyasining asosida oiladagi muhit yaqqol namoyon bo‘lib, uning kelajakdagi xatti-harakatlarini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Sog‘lom muhit qaror topgan oilada, albatta, jamiyat uchun foydali farzandlar kamol topadi. Bolaning qanday tarbiya topishi, qaysi

bilimlarni egallashi, qaysi kasb egasi bo‘lishi oiladagi rag‘batning nimaga yo‘naltirilganligiga bog‘liqdir. Uning bajargan qaysi ishlari, odatlari amallariga nisbatan rag‘bat, mukofot, e’tibor berilsa, bola ham shu jihatini takrorlashga, mustahkamlashga va rivojlantirishga intiladi. Aksincha, salbiy qabul qilingan, jazolangan holatlarini yashirish, kamaytirish yoki tugatishga harakat qiladi. Biz bu masalani ajoyib tajriba misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin: 1965-yilda vengriyalik Laslo Polgar o‘qituvchi ayolga turmush qurish taklifini beradi, lekin bu turmushdan maqsad o‘z g‘oyasini farzandlari ustida tajriba sifatida sinab ko‘rish edi. U tarbiya berish orqali har qanday insonni voyaga yetkazish mumkinligiga qattiq ishonadi. Ushbu tajriba uchun u shaxmat o‘yinini tanlab oladi va dunyoga kelgan uch farzandini shaxmatga rag‘bat, mukofot kuchli bo‘lgan muhitda tarbiyalab boshlaydi. Natijada, har bir farzandi bu sohaning yetuk insonlari bo‘lib ulg‘ayishdi, ayniqsa, kenja qizi yigirma yetti yil davomida jahonning eng yaxshi shaxmatchi ayoli unvonini saqlab qoladi. Bularning asosiy sababi oiladagi e’tiborning nimaga qaratilganligidadir. Ota-onada yoki yaqinlarning qo‘llab-quvvatlashi shaxs rivojlanishi, o‘z sohasinining yetuk mutaxassisib bo‘lishi, yuksak axloqqa erishishida muhim turkilardan hisoblanadi. Undagi loqaydlik esa farzand tarbiyasidagi haqiqiy inqirozdir.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, farzand tarbiyasi, uning sog‘lom muhitda o‘sib-ulg‘ayishida ota-onaning o‘rni birdek muhimdir. Oilaning har bir a‘zosi o‘z vazifalarini bajarishga mas’ulligi ular uchun bir qator ustunliklarni yaratadi, tarbiyanuvchilar ham iqtisodiy, ma’naviy resurslardan ko‘proq foydalana oladi. Biroq statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda bolalarning 64 % iga o‘z ota-onalari bilan birga hayot kechirishadi. Hayot tarzi bundan farqli bo‘lgan bolalarda esa ularning zarur imkoniyatlardan foydalanishlarida cheklov larga uchrash ehtimoli yuqorilashadi.

Farzand tarbiyasidagi muhim omillardan yana bir uning oila a’zolari, yaqinlari, do’stlari tomonidan tan olinishidir. Bola ulg‘aygani sayin uning atrofdagi kishilar nazarida mavqega ega bo‘lishi muhimplashib boradi. Bunda, albatta, odatdagidan ko‘proq e’tibor va tarbiya talab etiladi. Natija esa, albatta, ijobjiy yutuqlarga, bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oilaviy tarbiya ota-onaning hayotiy tajribalari natijasida orttirgan diniy, dunyoviy, iqtisodiy, estetik va shu kabi bilimlarini bolaning shaxs sifatida shakllanishi uchun singdirib borishlaridir. Oilaviy tarbiyaning mohiyatini tushunish esa ayni paytdagi dolzarb masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

15. M. Inomova – «Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi», Toshkent – 1999;
16. <https://vestiizssr.com/news/40-facts-about-two-parent-families-studies-and-2/>